https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 3-kurs talabasi
Muxtorov Ulug'bek Qahramon o'g'li
+998931245106
Mukhtarovulugbeek@gmail.com

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH

Annotatsiya: Mazkur ma'qolda O'zbekiston respublikasida ishsizlik muammosining mavjud holati, uning mamlakat ijtimoiy holati va iqtisodiyotiga ta'siri, shuningdek ushbu muammoni hal qilish yo'llari o'rganilgan. Ishsizlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarga, jumladan, mehnat bozorining notekis rivojlanishi, kadrlarning malakalari talabga javob bera olmasligi va aholi bandligini ta'minlashda uchrovchi tizimli muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Muammoni bartaraf etish uchun O'zbekistonda olib borilayotgan eng so'ngi islohotlar, innovatsion tashabbuslar va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha ilg'or tajribalar va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ishsizlik, iqtisodiyot, ishchi kuchi, talab va taklif, bozor.

Kirish

Ishsizlik - ishlash layoqatiga ega bo'lgan va mehnat qilish istagini bildirgan iqtisodiy faol fuqarolarning ish topa olmasligi hisoblanadi. Va bu muammo dunyoning xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan davlatida bo'lsin albatta mavjud. O'zbekistonda aholi orasidagi ishsizlik darajasi bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, mehnat bozorida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari ishsizlik juda ko'plab muammolarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ishsizlik oshib ketishi, davlatning intellektual salohiyatiga va kelajak avlodning ham farovonligi va taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan yosh mutaxasislarning barchasi ham mutaxasisligi bo’yicha ish topa olmaydi. Bunga ta’lim dasturlarining zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi va amaliy ko’nikmalar va tajribaning yetishmasligi sabab bo’ladi. Bundan tashqari, ayrim sohalarda ish o’rinlarining cheklanganligi, ish beruvchilarning ish stajiga ega kadrlarni afzal ko’rishi ham ishsizlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek ko’plab ish o’rinlarida ish haqining pastligi ham yoshlarning o’z sohasi bo’yicha emas, balkim boshqa sohalarda ishlashga majbur qiladi. Bunga misol qilib, ko’plab oliy ma’lumotli haydovchilar yoki ish topish maqsadida chet elga chiqib ketayotgan migrant kishilarni olishimiz mumkin Amaldagi iqtisodiy holatda esa ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi bilan belgilanadi.[1] Ishsizlikka bir qancha sabablar bor, masalan texnika rivojlanishi bilan mehnat unumdorligi ortadi, sanoat va ishlab chiqarishda zamonaviy robotlarning ishlatilishi ishning samarali va tez bajarilishini ta'minlaydi va natijada ishchi kuchi va jismoniy ishga talab kamayib ketadi. Buning natijasi o'laroq, iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartiradi va ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi. Bunday vaziyatda faqatgina malakali va kuchli tajribaga ega ishchilar o'z ishlarini saqlab qolishi mumkin bo'ladi.

O’zbekistonda ishsizlik tushunchasi mustaqillik elon qilinganidan keyin rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi qonunning qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi.[2] (Ushbu qonunning qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda "Aholi bandligi tog'risida"gi yangi tahriri qabul

[1] Islam, R. (2019a). Re-thinking development strategies and policies for productive employment 1. *Full and Productive Employment in Developing Economies*, 148 167. https://doi.org/10.4324/9781351256360-8
[2] 510-xii-сон 13.01.1992. Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида. (n.d.-a). https://lex.uz/docs/14893

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qilindi.[3]) O'zbekiston o'z mustaqilliiga erishgan dastlabki yillarda mavjud bo'lgan ishsizlik davriy ko'rinishga ega bo'lib, bu holat mamlakatda iqtisodiy tizimning o'zgarishi bilan bog'liq tarzda davom etgan. Aynan o'sha davrda iqtisodiyotda pasayish jarayoni kuzatilib, ko'plab sanoat va ishlab chiqarish korxonalari to'xtab qolgan yoki minimal quvvatda faoliyat yuritgan. Bunday holatning asosiy sababi sobiq Ittifoq davrida mamlakat korxonalarining boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan uzviy iqtisodiy aloqalarga bog'liq holda ishlaganida edi. O'sha yillarda O'zbekiston sobiq Ittifoqning asosiy xomashyo yetkazib beruvchi bazasi hisoblanib, boshqa respublikalardagi zavod va fabrikalarni resurslar bilan ta'minlab kelgan. Shu bilan birga, respublikadagi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalar o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar, butlovchi materiallar, xomashyo hamda yarim tayyor mahsulotlarni boshqa ittifoqdosh respublikalardan olib kelgan. Bundan tashqari, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy buyurtmachilari va iste'molchilari ham sobiq ittifoqdosh davlatlar bo'lgan. Umuman olganda, O'zbekiston hududidagi aksariyat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy jihatdan o'zga respublikalarga qaram bo'lgan. Ta'minot, resurslar, rejalashtirish, mahsulot olib kelish va yetkazib berish, shuningdek, sotish, buyurtma berish va iste'mol qilish kabi masalalar ko'pincha mustaqil hal qilinmagan.[4]

2000-yillarda Ozbekiston iqtisodiy barqarorlikni muntazam ravishda ta'minlash maqsadida milliy valyuta mustahkamligini saqlab qolish, bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish va chet el firmalarining investitsiyalarini jalb qilish kabi muhim qadamlarini ildam tashladi.[5] Bu davrlarga kelib ishsizlikni kamaytirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilib, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni

[3] O'RQ-642-сон 20.10.2020. Aholi bandligi to'g'risida. (n.d.-b). https://lex.uz/docs/-5055690

[4] Ra[illegible]oxon, A. (2023). Barqaror Rivojlanish Yo[illegible]da Hamkorlik Masalasi (O[illegible]ZBEKISTON VA ozarbayjon misolida). *GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION*, 10 13. https://doi.org/10.37547/goal-02

[5] qizi, T. N. X., & Shuxratovich, Q. E. (2024, April 3). *O ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI HAL QILISH CHORA-TADBIRLARI*. Молодые ученые. https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/29583

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qo'llab quvvatlashga alohida e'tibor berildi. 2016-yildan keyin O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish maqsadida qator qonunlar va farmonlar qabul qilindi.[6] Ayniqsa, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida qishloq joylarda ish bilan bandlikni oshirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish borasida katta ishlar amalga ooshirildi. So'nggi yillarda global pandemiya va boshqa tashqi iqtisodiy omillar ta'siriga qaramasdan, O'zbekiston hukumati ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan faol siyosatini davom ettirmoqda. Xususan, yoshlar orasida bandlikni oshirish uchun maxsus dasturlar joriy etilib, ularni kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlik uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'lga qo'yildi.[7]

Ushbu muammoni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida **PESTEL** tahlili bo'yicha ko'rib chiqamiz:

- Political (P):

O'zbekiston hukumati ishsizlikni kamaytirish maqsadida qator islohotlar va qonunlar qabul qilmoqda. Masalan qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan "Aholi bandligi to'g'risida" gi qonun[8] O'zbekistonda mehnat bozorini tartibga solish va aholi bandligini ta'minlash sohasida muhim huquqiy asos yaratdi. Ushbu qonun aholi bandligini oshirish, mehnat bozoridagi muvozanatni saqlash va ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

- Economical (E):

[6] O'rolova, N. (2024). O'zbekistonda Ishsizlikni Oldini olish va Mehnat Migratsiyasini Tartibga Solish Bo'yicha amalga oshirilayotgan Chora-Tadbirlar va Ularning Ahamiyati. *Nashrlar*, 174 177. https://doi.org/10.60078/2024-vol2-issd-pp174-177

[7] Ishsizlikka Qarshi Kurashish. (n.d.). https://advice.uz/oz/document/3097

[8] O'RQ-642-сон 20.10.2020. Aholi bandligi to'g'Risida. (n.d.-b). https://lex.uz/docs/-5055690

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati yangi ish o'rinlariga talabni oshiradi va ko'plab ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratadi. 2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra O'zbekistonda ishsizlik darajasi 5.8% ga kamaydi.[9] Bu haqida Bandlik vazirligi habar berdi, unga ko'ra respublikada 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich yil boshida 1 mln 24 ming nafarni tashkil etgan va o'tgan davr davomida qariyb 148 ming nafar aholi ish bilan ta'minlangan.[10]

- Social (S):

Yoshlar orasidagi ishsizlik. Aholining mehnatga layoqatli qismi orasida ayniqsa yoshlar ishsizligi yuqori bo'lib, bu yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishiga to'siq bo'ladi. Bu nafaqat ularning iqtisodiy holatiga balki psixologik muammolarga ham olib keladi. Bundan tashqari korrupsiya, tanish-bilishchilik ham jamiyatda, mehnat bozorida shaffoflikning rivojlanmaganligi ba'zi guruhlarning mehnat bozoridan chetda qolishiga olib keladi.[11]

- Technological (T):

Texnologik jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy texnologiyalar, xususan, avtomatlashtirish va robototexnika ko'plab sohalarda ishchilarga bo'lgan talabni kamaytiradi. Masalan, so'ngi yillarda ko'plab chet el texnologiyalarining kirib kelishi sanoat va qishloq xo'jaligida ba'zi jarayonlarning to'liq avtomatlashtirishiga olib keldi. Albatta, texnologiyalarning ijobiy tomonlari ham bo'lib, raqamli infratuzilma bunga yaqqol misol bo'la oladi. Internet va texlogiyalar, gadjetlar masofadan turib ishlash imkoniyatini oshirmoqda hamda bu ish o'rinlarini geografiyasini o'zgartirib, turli sektorlarda bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Ijobiy

[9] Daryo.uz. (2024, November 1). *Bandlik Vazirligi o'zbekistonda Ishsizlik Kamayganini ma'lum qildi*. https://daryo.uz/2024/11/01/bandlik-vazirligi-ozbekistonda-ishsizlik-kamayganini-malum-qildi
[10]Kunu.uz. (n.d.-b). *O'zbekistonda Ishsizlik Darajasi Kamaygani ma'lum qilindi*. Kun.uz. https://kun.uz/news/2024/03/05/ozbekistonda-ishsizlik-darajasi-kamaygani-malum-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2024%2F03%2F05%2Fozbekistonda-ishsizlik-darajasi-kamaygani-malum-qilindi

[11] https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0020/5.27.pdf

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ta'siri shundan iboratki, pandemiya davrida ham ko'plab insonlar o'z ishlarini internet orqali masofaviy ishlab o'z ishlarini saqlab qoldilar.[12]

- Environmental (E):

Ishsizlikni ekologik jihatdan ko'rib chiqsak, iqlim o'zgarishlari va tabiiy ofatlar ham juda ko'plab ish o'rinlarining yo'qotilishiga olib keladi. Masalan, suv toshqinlari va qurg'oqchilik, qishloq xo'jaligida va fermerlarning ishlarini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari yashil ish o'rinlari (green jobs) atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida, ekologik sohalar bilan bog'liq ish o'rinlari soni ortib bormoqda. Jumladan, so'ngi yillarda quyosh panellarini o'rnatish va chiqindilarni qayta ishlash sektorlarida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.[13]

- Legal (L):

Bandlik masalasi davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega. Ya'ni davlat qonunchiligi orqali barcha fuqarolarning mehnat qilish huquqini ta'minlashga mas'uldir. Bu, ayniqsa, mehnatga layoqatli va imkoniyati bor lekin ish topolmayotgan uchun jida muhim hisoblanadi.[14]

O沆bekiston Respublikasi ishsizlikni kamaytirish va aholini bandlik bilan ta厧minlash maqsadida so沆ggi yillarda bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash vazirligi ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizda 2023-yil yakuniga ko'ra ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan

[12] *Ochiq Ma'lumotlar*. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (n.d.). https://mehnat.uz/oz/pages/ochiq-malumotlar

[13] https://m.kun.uz/news/2021/05/22/ozbekistonda-kambagallik-muammosi-sabablar-va-yechimlar
[14] https://mehnat.uz/oz/pages/ozbekistonda-ijtimoiy-himoya-tizimini-mustahkamlash-loyihasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2,1 foizga kamaydi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 mln. 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshgan.[15]

O‘zbekistonda ishsizlik darajasini pasaytirish va yoshlarni ish bilan ta’minlashni samarali tashkil etish uchun mehnat bozoridagi muammolarga kompleks yondashuv talab etiladi. Bu nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratishni, balki ishsizlikning tub sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga oladi. Yoshlarning mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonishi uchun ularga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish muhim bo‘lib, bu jarayon ta’lim va malaka oshirish dasturlariga katta sarmoya kiritishni talab qiladi. Ayniqsa, zamonaviy talablar asosida tayyorlangan o‘quv dasturlari yoshlarni kasbga yo‘naltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlarini targ‘ib qilish, gender tengligi, xilma-xillik va inklyuzivlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari o‘zaro hamkorlikda ushbu masalalarni hal qilish uchun kuch birlashtirishlari kerak. Aynan birgalikdagi harakatlar orqali biz har bir fuqaro, xususan, yosh avlod uchun mehnat bozorida o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi, iqtisodiy farovonlikka erishishi va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi uchun qulay sharoitlar yaratishimiz mumkin.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va mehnat bozorini liberallashtirish siyosati ushbu yo‘nalishdagi qadamlarni jadallashtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan dasturlar ishsizlikni kamaytirish va yoshlarning bandligini oshirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Faol jamoaviy harakatlar va ijtimoiy adolatga sodiqlik orqali biz har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar, o‘z hayotini yaxshilash va mamlakatimizning yanada barqaror va farovon bo‘lishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan jamiyatni qurish yo‘lida oldinga qadam tashlashimiz kerak.

[15] https://daryo.uz/2024/03/04/ozbekistonda-ishsizlik-darajasi-kamaygani-malum-qilindi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islam, R. (2019a). Re-thinking development strategies and policies for productive employment 1. Full and Productive Employment in Developing Economies, 148 167. https://doi.org/10.4324/9781351256360-8
2. Ra厠oxon, A. (2023). Barqaror Rivojlanish Yo汴ida Hamkorlik Masalasi (O汢BEKISTON VA ozarbayjon misolida). GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION, 10 13. https://doi.org/10.37547/goal-02
3. T. N. X., & Shuxratovich, Q. E. (2024, April 3). O厥BEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI HAL QILISH CHORA-TADBIRLARI. Молодые ученые. https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/29583
4. O‘rolova, N. (2024). O‘zbekistonda Ishsizlikni Oldini olish va Mehnat Migratsiyasini Tartibga Solish Bo‘yicha amalga oshirilayotgan Chora-Tadbirlar va Ularning Ahamiyati. Nashrlar, 174 177. https://doi.org/10.60078/2024-vol2-issd-pp174-177
5. Ochiq Ma’lumotlar. O’zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (n.d.). https://mehnat.uz/oz/pages/ochiq-malumotlar
6. O‘RQ-642-сон 20.10.2020. Aholi bandligi to‘g‘Risida. (n.d.-b). https://lex.uz/docs/-5055690
7. Daryo.uz. (2024, November 1). Bandlik Vazirligi o’zbekistonda Ishsizlik Kamayganini ma’lum qildi. https://daryo.uz/2024/11/01/bandlik-vazirligi-ozbekistonda-ishsizlik-kamayganini-malum-qildi
8. Ishsizlikka Qarshi Kurashish. (n.d.). https://advice.uz/oz/document/3097
9. 510-xii-сон 13.01.1992. Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида. (n.d.-a). https://lex.uz/docs/14893

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

10. “Analysing the Factors Effecting on Unemployment Rate and Recent Trends in Labour Market of Uzbekistan" International Journal of Advanced Academic Studies, 2020. https://www.allstudyjournal.com/article/120/2-2-63-405.pdf?utm_source
11. "Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges" World Bank, 2021. https://documents1.worldbank.org/curated/en/666311634704762319/pdf/YouthEmployment-in-Uzbekistan-Opportunities-and-Challenges.pdf?utm_source
12. "Socioeconomic Indicators - Uzbekistan | Market Forecast" Statista, 2024 https://www.statista.com/outlook/co/socioeconomic-indicators/uzbekistan?utm_source .
13."Unemployment Rate in Uzbekistan and Opportunities for Employment" World Bulletin of Management and Law, 2022. file:///C:/Users/user/Downloads/2279-Article%20Text-4239-1-10-20230303.pdf